XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 9-aprel VI-75-73-5-70-K/24 Konimex tumani

Konimex tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1- ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2023-yil 12-dekabrdagi 186-5-70-F/23 -sonli farmoyishiga asosan Respublika Aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Navoiy viloyati Konimex tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra umumiy perimetri **1 699 424 metr**, umumiy maydoni **1 606 511,14** gektar ekanligi aniqlandi. Tumandagi shaharchalar, qishloqlar va ovullarning umumiy uzunligi va umumiy maydonlari quyidagilardan iborat.

Jumladan:

Konimex shaharchasining umumiy perimetri 14 642 metr, umumiy maydoni 550,08 gektar;

Sho‘rtepa shaharchasining umumiy perimetri 3 894 metr, umumiy maydoni 84,93 gektar;

Momiqchi shaharchasining umumiy perimetri 7 884 metr, umumiy maydoni 103,02 gektar;

Zafarobod shaharchasining umumiy perimetri 14 820 metr, umumiy maydoni 609,89 gektar;

Balaqaraq shaharchasining umumiy perimetri 6 001 metr, umumiy maydoni 116,04 gektar;

Yangiobod qishlog'ining umumiy perimetri 81 716 metr, umumiy maydoni 20 812,45 gektar;

Chordara qishlog'ining umumiy perimetri 122 063 metr, umumiy maydoni 20 715,88 gektar;

Yangiqazg'an ovulining umumiy perimetri 208 756 metr, umumiy maydoni 217 946,13 gektar;

Qaraqata ovulining umumiy perimetri 433 651 metr, umumiy maydoni 624 896,26 gektar;

Boymurod ovulining umumiy perimetri 195 239 metr, umumiy maydoni 222 384,20 gektar;

Sarjal ovulining umumiy perimetri 299 899 metr, umumiy maydoni 181001,92 gektar;

Uchtepa ovulining umumiy perimetri 310 860 metr, umumiy maydoni 317 290,34 gektar ekanligi aniqlandi.

Konimex tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda tumandagi xar bir shaharchalar, qishloqlar va ovullarning chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi.

Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Konimex tumanidagi shaharcha, qishloqlar va ovullarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Konimex tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qlish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2024-yil 7-martdagi 01-05/09-sonli yig‘ilish bayonini muhokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Konimex tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Konimex tumanidagi shaharchalar, qishloqlar va ovullarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Konimex tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud (massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2024-yil 7-martdagi 01-05/09-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Konimex tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2 va 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Konimex tumani Kengashining 2020-yil 27-apreldagi 5/37 -sonli hamda Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2020-yil 27-noyabrdagi 12/99-sonli qarorlariga asosan tasdiqlangan Konimex tumanining ma’muriy-hududiy chegarasiga o‘zgartirish kiritilishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati kotibi Ye.Kadirovga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashidan so‘ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining o‘rinbosari G.Yuldashov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

RO‘ZIYEV RUSLAN NASIROVICH

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2024-yil 9-apreldagi
VI-75-73-5-70-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Konimex tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarining chegaralarini belgilash to‘g‘risida

M A’ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklar nomlari	Umumiy perimetri (metr)	Umumiy yer maydoni (gektar)
1	Konimex shaharchasi	14 642	550,08
2	Sho‘rtepa shaharchasi	3 894	84,93
3	Momiqchi shaharchasi	7 884	103,02
4	Zafarobod shaharchasi	14 820	609,89
5	Balaqaraq shaharchasi	6 001	116,04
6	Yangiobod qishlog'i	81 716	20 812,45
7	Chordara qishlog'i	122 063	20 715,88
8	Yangiqazg'an ovuli	208 756	217 946,13
9	Qaraqata ovuli	433 651	624 896,26
10	Boymurod ovuli	195 239	222 384,20
11	Sarjal ovuli	299 899	181 001,82
12	Uchtepa ovuli	310 860	317 290,34
	Jami	**1 699 424**	**1 606 511,14**

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2024-yil 9-apreldagi
VI-75-73-5-70-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Konimex tumani ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi
1-uchastka

A dan B gacha	***Navbahor tumani yerlari***
B dan D gacha	***Qiziltepa tumani yerlari***
D dan A gacha	***Buxoro viloyati yerlari***

Shartli belgilar

- Viloyatlar chegarasi
- Tumanlar chegarasi
- Shaharlar va shaharchalar chegarasi
- Qishloqlar (Ovullar) chegaralari

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2024-yil 9-apreldagi
VI-75-73-5-70-K/24 -son qaroriga
3-ilova